



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

JON STEYNBEKNING "SICHQONLAR VA ODAMLAR" ROMANINING POETIK XUSUSIYATLARI

Sherkulov Sardor Komilovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Fakultetlararo xorijiy tillar kafedrasi mudiri, PhD

Axmedova Dilnoza Abdumannonovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Fakultetlararo xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Jon Steynbekning "Sichqonlar va odamlar" romani, 1937-yilda nashr etilgan va XX asr adabiyotining eng muhim asarlaridan biri hisoblanadi. Roman, mehnatkash sinfining hayotini, orzularini va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni tasvirlash orqali insoniyatning zaif qatlamlariga e’tibor qaratadi. Asarda ikki asosiy qahramon – Jorj va Lennining orzulari, ularning o‘zaro do‘sstligi va jamiyat tomonidan yuzaga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy to‘siqlar orqali amalga oshmaydigan orzulari yoritiladi. Steynbekning realizm uslubi, sodda va tabiiy til, psixologik tahlil va badiiy vositalar orqali, o‘quvchiga insonlar orasidagi ijtimoiy farqlar, yolg‘izlik va tengsizlikni chuqurroq tushunishga imkon yaratadi. Roman, nafaqat jamiyatdagi tengsizlikni, balki insonlarning ichki kurashlarini ham ko‘rsatadi, bu esa Steynbekning badiiy merosida katta ahamiyatga ega.

Kalit so’zlar: realizm, psixologik tahlil, ijtimoiy tanqid, inson psixologiyasi, axloqiy ziddiyatlar, orzular, tengsizlik, sotsial izolyatsiya, simvolizm, do‘sstlik, mehnatkash sinfi.

Annotation

John Steinbeck’s "Of Mice and Men" is a seminal work of 20th-century American literature, published in 1937. The novel highlights the lives of working-class individuals, their dreams, and the social inequalities they face in society. The story revolves around two main characters, Jorj and Lennie, whose dreams and friendship



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

are hampered by the economic and social barriers imposed by society. Through Steinbeck's use of realism, simple and natural language, psychological analysis, and literary devices, the novel offers insight into social disparities, loneliness, and inequality. The narrative not only critiques societal injustice but also delves into the internal struggles of individuals, making it an essential part of Steinbeck's literary legacy.

Keywords: realism, psychological analysis, social critique, human psychology, moral conflict, dreams, inequality, social isolation, symbolism, friendship, working class.

Аннотация

Роман Джона Стейнбека "Светлячки и люди", опубликованный в 1937 году, является одним из самых важных произведений американской литературы XX века. Роман описывает жизнь рабочего класса, их мечты и социальное неравенство, с которым они сталкиваются в обществе. Основными героями являются Джордж и Ленни, чьи мечты и дружба оказываются разрушены экономическими и социальными барьерами, навязанными обществом. Через реализм Стейнбек использует простой и естественный язык, психологический анализ и литературные приемы, чтобы раскрыть социальные различия, одиночество и неравенство. Этот роман не только критикует общественную несправедливость, но и исследует внутренние противоречия героев, что делает его важным вкладом в литературное наследие Стейнбека.

Ключевые слова: реализм, психологический анализ, социальная критика, психология человека, моральный конфликт, мечты, неравенство, социальная изоляция, символизм, дружба, рабочий класс.

Jon Steynbekning 1937-yilda nashr etilgan "Sichqonlar va odamlar" romani, Amerikaning buyuk adabiy asarlaridan biri hisoblanadi. Roman, uning bosh qahramonlari – Jorj Milton va Lenni Smol orqali, hayotning murakkab tomonlarini, insoniyatning orzularini va ijtimoiy tengsizliklarni yoritadi. Steynbek bu romanda



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

o‘zining poetika uslubi orqali odamlar hayotining ayrim noxush va murakkab jihatlarini tasvirlaydi. Ushbu maqolada, Steynbekning "Sichqonlar va odamlar" romanidagi poetika xususiyatlari tahlil qilinadi. Bu tahlil, romandagi badiiy vositalar, tilning nozik ishlatalishi, personajlarning psixologik portretlari, simvolizm va mavzular kabi poetik jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Poetika adabiyotda asar tuzilishini, stilistik usullarni va badiiy vositalarning qanday ishlatalishini o‘rganadi. Steynbek, o‘zining "Sichqonlar va odamlar" romanida, nafaqat sotsial va psixologik masalalarni ko‘tarib, balki badiiy vositalar orqali bularni tasvirlashga intiladi. Steynbekning poetika uslubi, romanining umumiy mazmuniga mos keladigan, o‘ziga xos tuzilma va stilistik xususiyatlarga ega. Quyida Steynbekning romandagi poetika xususiyatlari tahlil qilinadi.

Steynbekning "Sichqonlar va odamlar" romanidagi til va uslub, o‘quvchiga jamiyatdagi eng zaif qatlamlarning hayotini tushunishga yordam beradigan vosita sifatida ishlaydi. U oddiy va sodda tilni qo‘llaydi, bu esa o‘zining badiiy ifodalarida ta’sirchanlikni saqlaydi. Steynbekning oddiy tilga bo‘lgan yondashuvi, o‘quvchiga qahramonlarning ichki dunyosini, ularning orzularini va kurashlarini to‘g‘ri anglash imkoniyatini beradi. U oddiy qishloq ishchilarining va mehnatkashlarning og‘zaki nutqini aks ettirishda realistik yondashuvni tanlaydi.

Tilning oddiyligi romanning asosiy qatlaminini tashkil etadi. Steynbek, o‘zining qahramonlarini ifodalashda ularning kundalik muloqotini aniq, sodda va tabiiy tarzda ko‘rsatadi. Bu til orqali, Steynbek o‘quvchiga soddalik orqali chuqr psixologik va sotsial masalalarni yoritadi. Shu bilan birga, simvolizm ham Steynbekning poetikasida muhim o‘rin tutadi. Masalan, Lenni va Jorjning orzulari, o‘z fermasiga ega bo‘lish istagi, ular uchun erkinlik va ijtimoiy tenglikning ramzi sifatida ishlatalidi. Lennining o‘limi esa, uning orzusining oxirgi puchligini va jamiyatning kuchli tuzilmalaridan orqaga qaytib bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

Steynbekning personajlarni yaratishdagi poetik usuli, ularning psixologik jihatlarini chuqr ochib beradi. Jorj va Lenni o‘rtasidagi munosabat, romanning asosiy psixologik jihatni sifatida tasvirlanadi. Jorj, aqlan zaif bo‘lgan Lennini himoya qiladi va uning orzulariga erishishga yordam beradi. Bu orzu, ularning o‘zaro mas’uliyatini va do’stiligini tasvirlaydi. Steynbek, bu ikki qahramonning ichki dunyosini va bir-biriga bo‘lgan his-tuyg‘ularini badiiy vositalar yordamida chuqr tahlil qiladi.



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

Lenni, Steynbek tomonidan tasvirlangan psixologik jihatlari bilan, o‘zining aqlan chekhanishiga qaramay, o‘zining qudratiga va ishlariga sodiq qoladi. U doimo qiyinchiliklarga duch keladi, ammo u har doim yaxshilik va do‘stlik ni anglashga intiladi. Jorj, o‘zining aqliy qobiliyatları bilan, Lennini himoya qilish orqali, uning orzulariga erishishdagi yordamchi rolini o‘ynaydi. Steynbek, bu ikki qahramonning o‘zaro munosabatini badiiy vositalar orqali ko‘rsatishda psixologik noziklikni ishlataladi.

Simvolizm Steynbekning romanida katta ahamiyatga ega. Lenni va Jorjning orzulari, o‘z fermasiga ega bo‘lish, ular uchun ozodlik, baxt va mustaqillik ramzi sifatida ishlataladi. Bu orzu, o‘quvchiga jamiyatdagi mehnatkashlarning tinch va erkin hayotga bo‘lgan intilishlarini ko‘rsatadi. Lenni va Jorjning orzusi, ularning sotsial izolyatsiyasi va iqtisodiy ziddiyatlari orqali amalga oshirilmaydi. Shu bilan birga, Lennining o‘limi, umidning so‘nggi puchligi sifatida ko‘rsatiladi, bu esa simvolik jihatdan o‘zining orzusini amalga oshira olmaydigan odamlarning haqiqiyligini ko‘rsatadi.

Steynbekning simvolizmi orqali, tabiat va hayvonlar ham ahamiyat kasb etadi. Masalan, sichqonlar – romandagi eng muhim simvollardan biridir. Lenniening sichqonni o‘ldirishi, uning hech qachon o‘z orzusiga erisholmasligini, shuningdek, uning jismoniy kuchi va aqlan zaifligini ifodalaydi. Sichqonning o‘limi, Steynbek tomonidan jamiyatdagi zaif shaxslarning taqdiri sifatida ishlataligancha.

“Sichqonlar va odamlar” romani, o‘zining sotsial tanqidi va insoniyatning ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Steynbek, romanda ixtiyoriy tengsizlik va iqtisodiy beqarorlikni ko‘rsatadi. Kruksning qora tanli bo‘lishi, Kandining yoshi va ish qobiliyati cheklanganligi, xotinning nikohdagi qiyinchiliklari – bularning barchasi ijtimoiy muammolar va yolg‘izlikni ko‘rsatadi. Steynbek, bu personajlarning har biri orqali, jamiyatningadolatsiz tomonlarini ochib beradi. Ularning har biri o‘z orzusini amalga oshirishga intiladi, lekin jamiyatning qattiq tuzilmalaridan va o‘zining ijtimoiy holatidan chiqib keta olmaydi.

Steynbekning sotsial tanqidi romanining markazida turgan asosiy mavzulardan biridir. U, o‘zining poetik yondoshuvi orqali, nohaqlik, qashshoqlik va irqi tengsizlik kabi muammolarni o‘quvchiga aniq va ta’sirchan tarzda yetkazadi. Steynbek,



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

o‘zining qahramonlari orqali, jamiyatdagi bu muammolarni ko‘rsatish bilan birga, ularning ichki kurashlarini ham yoritadi.

Xulosa.

Steynbekning "Sichqonlar va odamlar" romani, o‘zining strukturasida oddiy dialoglar tilini qo‘llaydi. Steynbek o‘zining badiiy uslubida, qahramonlarning ichki dunyosini va ular o‘rtasidagi aloqalarni sodda va tabiiy tarzda tasvirlaydi. Roman, dialoglar orqali qahramonlarning hissiyotlarini, orzularini va kurashlarini ko‘rsatadi. Bu dialoglar o‘zaro munosabatlarni aniq ko‘rsatib berishda yordam beradi va o‘quvchiga har bir qahramonning ichki holatini chuqur tushunishga imkon yaratadi. Jon Steynbekning "Sichqonlar va odamlar" romani, uning badiiy yondoshuvining noyob namunasi bo‘lib, adabiyotda poetikaning juda muhim o‘rin tutganligini ko‘rsatadi. Steynbek, oddiy mehnatkashlarning hayotini tasvirlashda realizmni qo‘llash orqali, o‘zining badiiy yondoshuvini nafaqat sotsial tanqid va psixologik tahlil, balki simvolizm va tilning oddiyligi kabi vositalar orqali yoritadi. Steynbekning "Sichqonlar va odamlar" romani, nafaqat zamonaviy adabiyotning yuqori namunasidir, balki insoniyatning zaif qatlamlari va ularning orzularini amalga oshirishdagi kurashini o‘quvchiga aniq ko‘rsatadigan muhim asardir.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Sherqulovich, M. K. (2025, April). “YOSH VERTERNING IZTIROBLARI” ASARINING NEMIS ADABIYOTIDAGI O ‘RNI. In International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health (pp. 43-48).
2. Markayev, K., Maxmudov, N., & Xamrayev, D. (2003). Sprichwoter/Maqollar T.
3. Маркаев, К. III. (2023). ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ СОВРЕМЕННОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ. IMRAS, 6(8), 240-244.
4. Komilovich, S. S. (2025, April). TOMAS HARDINING “G ‘ALATI OLOMONDAN UZOQDA” ROMANIDAGI OBRAZLAR TIZIMI VA ULARNING BADIY YUKLAMASI. In International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health (pp. 64-72).
5. Komilovich, S. S. (2025, April). TOMAS HARDINING “G ‘ALATI OLOMONDAN UZOQDA” ROMANINING POETIK XUSUSIYATLARI.



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

In International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health (pp. 54-63).

6. Sherqulovich, M. K. (2025, April). YOSH VERTERNING IZTIROBLARI” ROMANINING YEVROPA MADANIYATIGA TA’SIRI. In International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health (pp. 49-53).
7. Markayev, K. (2005). Totemistik Tasavvurler Bilen Bağlık Etnonimler. Özbek Tili ve Edebiyati, 94-97.
8. Бобокалонов, Р. Р., Курбанов, П. А., Маркаев, К. Ш., & Хайтов, Ч. (2016). ДОСТИЖЕНИЯ УЗБЕКСКИХ УЧЕНЫХ В ОБЛАСТИ ЛИНГВИСТИКИ ТЕКСТА НА ОСНОВЕ НАУЧНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. International scientific journal, 30.
9. Jabborovich, X. J., & Sherkulovich, M. K. (2020). Lexicographic study of ethnonymy semantics. Test Engineering and Management, 83(5-6), 737-742.
10. SHERQULOV, S. TRAGEDY IN WILLIAM FAULKNER’S “THE SOUND AND THE FURY”. O ‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022,[1/3 ISSN 2181-7324.
11. Komilovich, S. S. (2023). TOG ‘AY MUROD IJODIDA UILYAM FOLKNER ASARLARI TA’SIRI. Journal of Integrated Education and Research, 7(1), 75-77.
12. Komilovich, S. S. (2024). QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA ADABIY TA’SIR MASALALARI. In Konferensiylar| Conferences (Vol. 1, No. 4, pp. 492-495).
13. Baxtiyorovna, M. T., & Abdumannonova, A. D. (2022). Use and application of interactive methods in teaching German.
14. Abdumannonovna, A. D. (2025, May). ERIX MARIYA REMARK ASARLARIDA YO ‘QOTILGAN AVLOD TASVIRI. In Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (pp. 106-114).
15. Abdumannonovna, A. D. (2025, May). GYOTE VA SHARQ ADABIYOTI: MADANIYATLARARO MULOQOT TIMSOLI. In Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (pp. 96-105).



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

16. Abdumannonovna, A. D. (2025, May). “YO ‘QOTILGAN AVLOD’ KONSEPSIYASI VA UNING ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI O ‘RNI. In Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (pp. 115-123).
17. Abdumannonovna, A. D. (2022). German as the language of science: problems and perspectives.
18. Abdumannonovna, A. D. (2025, April). “MARJONLAR O ‘YINI” ROMANIDA INTELLEKTUAL DUNYO VA REAL HAYOTNING AJRALISHI MUAMMOSI. In International Conference on Economics, Finance, Banking and Management (pp. 169-176).
19. Abdumannonovna, A. D. (2025, March). “MARJONLAR O’YINI” ROMANIDA G’ARB VA SHARQ TAFAKKURINING SINTEZI. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 80-87).
20. Abdumannonovna, A. D. (2025, March). HERMANN HESSE IJODIDA ROMANTIZM. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 72-79).
21. Mamashoev, U. U. (2023). EXPRESSION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN LANGUAGE AND CULTURE IN PHRASEOLOGY WITH THE HEART COMPONENT. In Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования (pp. 76-80).
22. Boymurotovna, X. N. (2025, March). RUS TILINI O ‘RGANISHDA SUN’IY INTELLEKT VA NEYRON TARMOQLARNING ROLI. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 55-62).
23. Зикриллаева, Ф., Дустмуродова, М., Норматова, Н., Сайдуллоева, М., & Абдирахимова, М. (2025). Globalizatsiyalashgan zamonaviy tilshunoslik paradigmalar. Инновации в современной лингвистике и преподавании языков, 1(1), 298-300.
24. Normurodovna, A. M. (2025, February). INGLIZ TILI GRAMMATIKASINING INGLIZ TILI KURSIDAGI AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 302-309).



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

25. Ergashevna, S. M. (2025, February). INGLIZ TILI MUTAXASSISI BO'LISHDA BOSHLANG'ICH INGLIZ TILI DARSLARINING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 350-357).
26. Axmedovna, B. S. (2025, February). O'ZBEKISTONDA XORIJUY TILLARNING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 326-333).
27. Normurodovna, A. M. (2025, February). TASHKIOTLAR O'RTASIDAGI HAMKORLIKDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 310-317).
28. Qodirov, F. T., & Zoxidov, J. B. (2020). Development Of An Automatic Ventilation System For Smart Greenhouses. In Инновации в технологиях и образовании (pp. 19-21).
29. Botirovich, X. S. Iskandar o 'g 'li, SB (2024). PERFORM ADDITION AND MULTIPLICATION OPERATIONS IN EXCEL. GOLDEN BRAIN, 2(16), 42-46.
30. Suvonov, B., & Jamilova, S. (2024). Sun'iy intellektual tizimlarda noaniq mantiqning ahamiyatliligi va uning aniq mantiqdan farqi. Interpretation and researches,(4 (26)).